

INVESTITSIYA VA TASHQI SAVDO FAOLIYAT TO‘G‘RISIDAGI QONUNCHILIK IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI TAHLILI

Asadov Azizbek Axmadovich

*O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: Qayd etish lozimki, mamlakatimizda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining so‘zsiz bajarilishini ta’minlash, investitsiya va tashqi savdo faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ushbu faoliyat subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash, investitsiyalarni jalb qilish, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish, eksport salohiyatini, ayniqsa mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarning raqobatdoshligini va moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan qonun hujjatlari hamda dasturlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish prokuratura organalari faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri desak bo‘ladi.

Ushbu maqolada investitsiya va tashqi savdo faoliyat to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati amaliyoti o‘rganilib, unga ko‘ra qonunchilik ijrosi ustidan nazorat prokuratura organlarining mazkur sohadagi asosiy yo‘nalishlari va elementlari ajratib ko‘rsatilib, tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: prokuratura organlari, prokuror nazorati, investitsiya, tashqi savdo, asosiy yo‘nalish va elementlar.

Tegishli qonun hujjatlari orqali investitsiya siyosatini amalga oshirish mohiyatan jamiyatdagi butun ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga qaratilgan. Iqtisodiy muammolarni hal qilish ijtimoiy muammolar bilan chambarchas bog‘liq, shuning uchun investitsiya faoliyatini nazorat qilish davlatning iqtisodiy va huquqiy siyosatining eng muhim yo‘nalishi deb hisoblanishi mumkin, bu esa belgilangan maqsadlarga erishishga imkon beradi, shu jumladan investitsiyalarning shakllanish manbalaridan qat‘i nazar, ularning kelib chiqishi va joriy etilishining qonuniyligi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish orqali.

Investorlarning huquqlari himoyasiga oid qonunchilikni prokuror nazorati orqali izchil hamda samarali tartibga solish huquqiy islohotlar zamirida muhim ahamiyat kasb

etadi, shu bilan bir qatorda investorlarda qonun ustuvorligi ta'minlanganligi hamda davlat tomonidan huquqiy himoya mavjudligi to‘g‘risidagi tasavvurni hosil etadi¹.

Prokurorning investitsiya va tashqi savdo to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining bajarilishi ustidan nazorati ma'lum darajada davlat ishlab chiqarish hajmini oshirishga imkon beradi, mahsulot sifatini yaxshilaydi, yuqori ish haqi bilan ijtimoiy jozibador ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini oladi².

Shu o‘rinda Taraqqiyot strategiyasining 17-maqсади 60-bandida “Qonuniylikni qat’iy ta’minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda **“Qonun - ustuvor, jazo – muqarrar”** tamoyilini bosh mezonga aylantirish” kabi ustuvor vazifani amalga oshirish mexanizmi sifatida “prokuratura organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda davlat va jamoatchilik nazoratini o‘zaro uyg‘unlashtiruvchi yangi tizim joriy etish” belgilangan³.

Prokuror nazorati o‘zining tabiatи va funksional maqsadiga ko‘ra yagonadir. Bu butun prokuratura tizimi uchun yagona maqsadlar, prokuratura tizimining birligi, shuningdek, prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va faoliyatining huquqiy asoslari yagonaligi bilan bog‘liq.

Shu bilan birga, nazorat faoliyatining xilma-xilligi, uning kengligi, prokuratura nazorati predmeti va obyektining birligi, prokurorlarning o‘ziga xos vazifalari va vakolatlari, shuningdek prokuratura xodimlarining ixtisoslashuvi ehtiyojlari bilan tavsiflanadigan o‘xhash ijtimoiy huquqiy munosabatlarning mavjudligi sababli, mustaqil tarmoqlarni yoki prokuratura nazorati subfunksiyalarini, nazorat yo‘nalishlari (kichik tarmoqlari) va nazoratning quyi yo‘nalishlarini ajratish odatiy holdir.

Shu munosabat bilan, investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati – nazorat sohasi, nazorat yo‘nalishi yoki bo‘linmalari qanday, u prokuror nazorati tuzilmasida qanday o‘rinni egallaydi? Keling, bu masalani tushunishga harakat qilaylik.

Prokuratura nazorati tarmog‘i prokurorlarning o‘ziga xos predmeti va vakolatlari, shuningdek, prokurorlar tomonidan hal qilinadigan ijtimoiy munosabatlarining ushbu sohasiga xos maqsad va vazifalari bilan tavsiflangan yagona prokuror nazoratining nisbatan mustaqil qismidir.

¹ Iqtisodiy sohada Qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati. Uslubiy qo'llanma. II jilda. 1-jild // y.f.f.d. (PhD) A.B. Komilov, N.A. Azizov va boshqa mualliflar jamoasi. - T.: O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘rinbosari E.T. Yuldashevning umumiyy tahriri ostida. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi Akademiyasi, 2022. - 392 b.

² Схожую точку зрения высказывали и иные авторы. См., напр.: Фархутдинов И.З. Международно- правовое регулирование инвестиционных отношений: теория и практика. Дис. ... докт.юрид.наук. М., 2006. С.223.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармони билан тасдиқланган 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси // https://lex.uz/uz/docs/5841063

Prokuratura faoliyatining yo‘nalishlari bosh prokuror va unga bo‘ysunuvchi prokurorlarning faoliyati bo‘lib, ularni amalga oshirishda prokuratura uchun qonunda belgilangan maqsadlarga erishiladi va unga yuklatilgan vazifalar bajariladi.

Hozirgi vaqtda yagona prokuror nazoratida o‘z predmetiga ega bo‘lgan quyidagi prokuror nazorati tarmoqlari ajralib turadi.

Birinchi tarmoq - qonunlar ijrosi ustidan nazorat.

Ikkinci tarmoq – fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklariga riousha etilishi ustidan nazorat.

Uchinchi tarmoq – jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat.

To‘rtinchi tarmoq – ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta’sirning boshqa choralarini ijro etish chog‘ida qonunlarga riousha qilinishi ustidan nazorat.

Qonunchilik sohasi - bu bir hil ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, masalan, yer, atrof-muhit, pensiya, mehnat, iqtisodiy va boshqa sohalardagi qonun hujjatlari (ayrim hollarda kodlangan) va ular asosida chiqariladigan qonunga bo‘ysunuvchi normativ-huquqiy hujjatlar guruhi. Demak, yer, ekologiya, pensiya, mehnat, xo‘jalik qonunchiligi tarmoqlar sifatida qaraladi va ularning bir necha o‘nlablari bor.

Qonunchilikning tuzilishini, ya’ni uning nisbatan alohida tarmoqlari mavjudligini hisobga olgan holda, prokurorlarning nazorat faoliyati ham tashkil etiladi. U yoki bu tekshirish, boshqa nazorat harakatlarini amalga oshirish jarayonida ular amalga oshirish mumkin bo‘lmagan barcha qonun hujjatlarining emas, balki muayyan qonun hujjatlarining, masalan, mehnat qonunchiligining, buzilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning bajarilishini tekshiradi.

Shu munosabat bilan prokuratura nazorati tarmoqlari doirasida, xususan, qonunlar ijrosini nazorat qilish, shuningdek, inson va fuqaroning huquq va erkinliklariga riousha etilishini nazorat qilish, nazoratning tor sohalari yoki quyi tarmoqlari (tarmoq tarkibiy qismlari) ajralib turadilar. Ularning bir necha o‘nlablari bor.

Prokuror nazoratining yo‘nalishi ma'lum bir qonun yoki bir hil ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar guruhining bajarilishini nazorat qilish sohasidir. Shuning uchun yo‘nalishlarning nomlari: uy-joy to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish, fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish, iqtisodiy qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish, tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish, mudofaa va xavfsizlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish va boshqalar⁴.

⁴ Кеник. А.А. Прокурорский надзор // А.А.Кеник. - 2-е изд.- Минск: Амалфея, 2008.-512 с.



O‘z navbatida, prokuror nazorati sohalari yanada aniqroq tarkibiy qismlarga – quyi tarmoq (yo‘nalish)larga bo‘linadi.

Prokuror nazoratining quyi yo‘nalishi – bu prokuror nazoratining alohida yo‘nalishining ajralmas qismidir. Gap ijtimoiy munosabatlarining torroq, ammo ijtimoiy ahamiyatga ega qismini tartibga soluvchi qonunlar ijrosini nazorat qilish haqida bormoqda. Shunday qilib, iqtisodiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati yo‘nalishi: mulk to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazorat qilish, tadbirdorlarni huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish, banklar va naqd pul muomalasi to‘g‘risidagi hamda valyutaga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati, bankrotlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati sug‘urta to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati, soliq to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati va boshqa shu kabi kichik yo‘nalishlarga bo‘linadi. Iqtisodiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati yo‘nalishlarining yuqorida sanab o‘tilganlar qatoriga biz ilmiy tadqiqot o‘tkazayotgan kichik bir yo‘nalish – investitsiya va tashqi savdo faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining ijrosi ustidan prokuror nazorati kiradi.

Yana shuni qayd etish kerakki, ba’zi huquqshunos olimlar xorijiy investorlar (korporatsiyalar, firmalar, jismoniy shaxslar) ham mamlakatimizning tegishli loyihalarini investitsiyalashda ishtirok etganligi sababli, investitsiya va tashqi savdo faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining bajarilishi ustidan prokuror nazorati ham tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish yo‘nalishining kichik yo‘nalishi hisoblanishini ta’kidlaydilar⁵.

Afsuski, investitsiya va tashqi savdo faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish kabi prokuror nazoratining mustaqil kichik yo‘nalishining mavjudligi hamma tomonidan ham e’tirof etilavermaydi. Buni asosi sifatida aytish mumkinki, Rossiya Federatsiyasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi xodimlari tomonidan tayyorlangan "Iqtisodiyot sohasidagi qonunchilik hujjatlarining bajarilishi ustidan prokuror nazorati" hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi xodimlari tomonidan tayyorlanib, nashr etilgan "Iqtisodiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati" nomli adabiyotlarda iqtisodiyot sohasidagi prokuror nazorati yo‘nalishlariga har biriga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, biroq biz investitsiya va tashqi savdo faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini nazorat qilish bo‘limini ularni orasidan topa olmadik.

Ko‘rsatilgan holat prokuratura xodimlarini ma’lum darajada chalg‘itadi, ularni investitsiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilishni maqsad qilib

⁵ Прокурорский надзор за исполнением законодательства в сфере экономики. М.: Изд-во Мир энциклопедий. Аванта +. 2010.



qo‘ymaydi. Bu tegishli uslubiy ishlarning rivojlanishini rag‘batlantirmaydi. Shunday qilib, investitsiya faoliyatni to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan prokuror nazorati prokuratura nazorati tarmoqlarining iqtisodiy qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish va tashqi iqtisodiy faoliyatni to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish kabi prokuror nazorati sohalarining mustaqil bo‘linmasi hisoblanadi. qonunlarning ijrosi, inson va fuqaroning huquq va erkinliklariga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati.

Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, qonunlar ijrosini nazorat qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilishini nazorat qilish kabi sohalarda prokuror nazorati yo‘nalishlari soni bir necha yuzga yetadi.

Endi bevosita tadqiqot obyektimiz bo‘lmish investitsiya va tashqi savdo faoliyatni to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining asosiy yo‘nalishlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, oldingi paragraflarimizda aytib o‘tganimizdek, ushbu sohada qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylikni mustahkamlash, tadbirkorlarning huquq hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda prokuratura organlarining o‘rni muhim hisoblanib, bu borada prokuratura organlari bir nechta yo‘nalishda prokuror nazoratini amalga oshiradi.

Darhaqiqat, F.Raximovning⁶ ta’kidlashicha, prokuratura organlari faoliyatni yo‘nalishlari ikki turga bo‘lingan bo‘lib, birinchisi – prokuratura organlarining o‘z nazorat faoliyatini amalga oshirish, ikkinchisi – prokuratura organlarining nazorat bilan bog‘liq bo‘lмаган faoliyat yo‘nalishlaridan iborat.

Prokuror nazorati yo‘nalishlari prokuror harakatlarining algoritmini belgilab beradi. Bu yerda A.X.Kazarinaning pozitsiyasini asos qilib olish mumkin, u prokuror nazorati yo‘nalishini “tarmoq ichidagi nazorat faoliyatining alohida yo‘nalishi bo‘lib, uning taqsimlanishi bir xil ijtimoiy munosabatlar sohasidagi maxsus vazifalarni hal qilish zarurati bilan bog‘liq”⁷ deb aytadi.

Prokuratura organlarining qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishdagi asosiy yo‘nalishlaridan biri yuqorida ta’kidlaganimizdek investitsiya va tashqi savdo faoliyati haqidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati hisoblanadi.

Investitsiya va tashqi savdo faoliyatni to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining asosiy yo‘nalishlarini O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2022-yil 21-yanvardagi 256-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasining Tashqi savdo, investitsiyalar va tadbirkorlik sohalarida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi hamda 2017-yil 24-noyabrdagi 166-sonli “Ijtimoiy va iqtisodiy qonunchilik ijrosi ustidan

⁶ Raximov F.X. Prokuror nazorati va uning yo‘nalishlari: ilmiy-amaliy maqolalar to‘plami // O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururasining Oliy o‘quv kurslari / yu.f.d. T.A.Umarov umumiy tahriri ostida. – T.: “Noshir” nashriyoti, 2008. – B. 115.

⁷ Казарина А.Х. Предмет и пределы прокурорского надзора за исполнением законов. М., 2005. С. 26, 170.

prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyruqlaridan aniqlab olishimiz mumkin bo‘ladi. Unga ko‘ra, quyidagilar sohadagi prokuror nazoratining asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi:

mazkur sohada chiqariladigan huquqiy hujjatlarning qonuniyligi ustidan nazorat;

davlat kafolati ostidagi xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar hisobini yuritish hamda uning ijrosini nazorat qilish;

hududiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish va bu boradagi faoliyatni umumlashtirib borish;

oliy darajadagi tashriflar yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan hujjatlarning mansabdor shaxslar tomonidan bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatish;

davlat dasturlari, shu jumladan Taraqqiyot strategiyasiga doir tadbirlar va vazifalar ijrosi ahvolini umumlashtirish;

maxsus iqtisodiy zonalar, industrial va innovatsion texnoparklar faoliyatiga doir qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkillashtirish va quyi prokuraturalarning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirib borish (kichik sanoat zonalarini tashkil etish, yer maydonlari ajratish, hujjatlarni rasmiylashtirish va h.k);

tashqi savdo va investitsiyalarni tartibga solish masalalari bo‘yicha hukumat komissiyasi qarorlari ijrosini ta‘minlash ustidan nazoratni tashkil etish va bu boradagi faoliyatni umumlashtirib borish;

loyihalarning ishga tushirilishi va investitsiya majburiyatlarini bajarilishi ustidan nazorat olib borish;

eksport prognozi ko‘rsatkichlari ijrosini ta‘minlash;

tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga bank xizmatlari ko‘rsatilishi tartibiga rioya qilinishi ustidan nazorat;

eksportiyor tadbirkorlik subyektlariga yaratilgan sharoitlarni, ularga berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo‘llanilishini tegishli idoralarida o‘rganish;

Ko‘rib chiqilayotgan nazorat sohasidagi prokuraturaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu mazkur sohadagi huquqiy hujjatlarning qonuniyligini nazorat qilishdir.

Bizning fikrimizcha, prokuraturaning profilaktika funksiyasini amalga oshirishi nafaqat mavjud noqonuniy huquqiy hujjatlarga huquqiy ta‘sir chorasi qo‘llashga, balki investitsiya va tashqi savdo faoliyati sohasidagi tadbirkorlarning huquqlariga daxldor bo‘lgan noqonuniy huquqiy hujjatlar qabul qilinoshining oldini olishga ham imkon beradi.

Chet el tajribasini o‘rganishlar asosida aytish mumkinki, boshqa davlatlar qatorida mamlakatimizda ham ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda so'nggi yillarda maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish tendensiyasining o'sib borishi, ularda tashqi savdo va investitsiya munosabatlarining yanada rivojlanishi, ushbu hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi hamda yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarining tashkil etilishi, shuningdek raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada oshishi mazkur tuzilmalarda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va uni huquqiy tartibga solish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Hozirda dunyo miqyosida 4300 dan ziyod o'ziga xos xususiyatga ega bo'lган maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda⁸.

Shu nuqtayi nazardan, maxsus iqtisodiy zonalarda ishtirokchilarga yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida ma'muriy tartib-taomil va ruxsat berish qoidalarini yanada soddallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, investitsiya jozibadorligini oshirish hamda investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda⁹.

Prokuratura organlari maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishda mutasaddi vazirlik, idoralar va tashkilotlar faoliyatiga qonuniy baho berishlari, ular tomonidan o'zlariga qonunchilik hujjatlari bilan yuklatilgan vazifalarning to'laqonli bajarilishini ta'minlashlari, qonuniylik va huquqni qo'llash amaliyotining doimiy tahlili asosida tizimli qonunbuzilishlarni aniqlab, ularni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarni samarali amalga oshirishlari hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va davlatning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishlari lozim bo'ladi¹⁰.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 24-noyabrdagi 166-soni "Ijtimoiy va iqtisodiy qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi buyrug'iga asosan, erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishslash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ijrosiga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi belgilangan.

⁸ Special economic zones / <https://www.economist.com>.

⁹ Iqtisodiy sohada Qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati. Uslubiy qo'llanma. II jilda. 2-jild // y.f.f.d. (PhD) A.B. Komilov, N.A. Azizov va boshqa mualliflar jamoasi. - T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinosi E.T. Yuldashevning umumiy tahriri ostida. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi Akademiyasi, 2022. - 380 b.

¹⁰ O'sha joyda. – B. 114.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **Iqtisodiy sohada Qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati.** Uslubiy qo'llanma. II jildda. 2-jild // y.f.f.d. (PhD) A.B. Komilov, N.A. Azizov va boshqa mualliflar jamoasi. - T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinnbosari E.T. Yuldashevning umumiyl tahriri ostida. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi Akademiyasi, 2022. - 380 b. Паламарчук А.В. Задачи прокурорского надзора за исполнением законов органами местного самоуправления // Законность. 2014. № 3. – С. 19.
2. Prokuror nazorati: darslik / B.X.Po'latov; mas'ul muharrirlar: T.A.Umarov, A.T.Allamuratov va boshq. – T.: «O'zbekiston», 2009. – B. 54.
3. Казарина А.Х. Предмет и пределы прокурорского надзора за исполнением законов. М., 2005. С. 26, 170.
4. Алексеев С.Л., Вотчель Н.Р. / Прокурорский надзор: Учебное пособие / под редакцией Ф.Н.Багаутдина. – Казань: «Информационно-технологический центр АСО», 2014. – С 27-28.
5. Raximov F.X. Prokuror nazorati va faoliyat yo'nalishlari: ilmiy-amaliy maqolalar to'plami / yu.f.d. T.A.Umarov umumiyl tahriri ostida. – T.: "Noshir" nashriyoti, 2008. – B. 95-98
6. **Iqtisodiy sohada Qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati.** Uslubiy qo'llanma. I jildda. 1-jild // y.f.f.d. (PhD) A.B. Komilov, N.A. Azizov va boshqa mualliflar jamoasi. - T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinnbosari E.T. Yuldashevning umumiyl tahriri ostida. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi Akademiyasi, 2022. - 380 b.
7. Кеник. А.А. Прокурорский надзор // А.А.Кеник. - 2-е изд.- Минск: Амалфея, 2008.-512 c.